

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A. Sharafiddinov Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M. Temirova O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q. Sulaymonov Iqtisodiyotni globallashtirishda informatsiyaning o'rnini	213
X.E. Xodjamberdiyev Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A. Xakimov, O. Sh. Ubaydullayev Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M. Abdullayeva Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F. Abdurasulova Buxoro amirligida diniy ta'limning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi davrida rivojlanishi	232
A.A. Aloxunov Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati	236
M.B. Siddiqov Ikkinchi jahon urushi yillarida pensiya tizimi	241
G.A. Abdug'aniyeva Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V. Karimova Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G. Sabirdinov Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V. Abdullayeva Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q. Mamatova Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y. O'roqova Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A. Qahharova Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A. Xaqnazarova An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M. Islomova Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A. Qayumov, D.G'. Gafurova Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida).....	294
Y.B. Eshmatova Turk hikoyachiligida an'ana va yangilanishlar sintezi.....	299
Д. О. Турдалиев Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B. Sultonqulova Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiati	306
G.A. Jurayeva Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



UO'K: 821.512.133-3

XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING QAHRAMON YARATISH MAHORATI

THE HERO CREATION SKILLS OF XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ГЕРОЕВ ХУДОЙБЕРДИ ТЎХТАБОЕВА

Sabirdinov Akbar Gofurovich

Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramon va xarakterlar yaratishdagi badiiy mahorati tadqiq etilgan. Yozuvchi asarlari davrning dolzarb mavzulariga bag'ishlanganligi, obraz va personajlarining hayotiy va haqqoniy tasvirlanganligi bilan yangi davr o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutishi ko'rsatib berilgan. Ijodkor asarlarining o'ziga xos jihatlari, badiiy mahorati va uslubiga xos jihatlari yoritilgan.

Abstract

This article tells about the folk art of the Uzbek people Khudoyberdi Tukhtaboev's, the hero and hero of yaratishdag. This verse says that people living in Madinah have the right to participate in jihad, but do not have the right to participate in jihad. An artist working in Hossa zhihatlar's uziga, Hossa zhihatlar's skill and art style helped him.

Аннотация

В данной статье исследуется художественное мастерство народного писателя Узбекистана Худойберди Тохабоева в создании героев и характеров. Показано, что произведения писателя занимают особое место в узбекской литературе новой эпохи, благодаря их приверженности актуальным темам эпохи, образам и характерам, а также яркому и правдивому изображению. Освещаются специфические аспекты творчества художника, его художественное мастерство и стиль.

Kalit so'zlar: mahorat, uslub, qissa, roman, badiiyat, bolalar adabiyoti, obraz, personaj.

Key words: skill, style, short story, novel, fiction, children's literature, image, character.

Ключевые слова: мастерство, стиль, рассказ, повесть, художественная литература, детская литература, образ, персонаж.

KIRISH

XX asr o'zbek bolalar adabiyoti, xususan romanchiligi taraqqiyotida O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning alohida o'rni bor. Uning asarlaridagi tasvir haqqoniyligi, hayotiylik, jozibadorligi siri uzoq yillik tinimsiz izlanish, tajribalarning samarasi, hayot va vaqt sinovlarida toblanganlikning natijasidir. "Ayrim kishilardagi kamchilik va illatlar yig'indisi oxir-oqibatda jamiyatdagi illatni keltirib chiqaradi, illati bor jamiyat yaxshi rivojlana olmaydi, shu jamiyatga uyushgan kishilar to'liq ma'noda baxtli ham bo'lolmaydi, demak kishilardagi illatga qarshi kurashish kerak deb o'yladim, yengimni shimarib, felyeton yozishga kirishdim" deya e'tirof etgan adib 300 dan ortiq shu janrdagi asarlarini X.To'xtaboyev, T.Xudoyberdiyev, N.Bozorov, N.Karimov imzolari bilan chop ettirdi. "Yo'q, baribir, ko'nglim to'lmadi. Bostirib kelayotgan tankka qarshi roqatka(cho'zma)ga kesak solib otganimiz bilan ta'sir qilmaganidek, jamiyatdagi illatlarga qaratilgan felyetonlarimning ham hech ta'siri bo'lmagandek edi. Ruhi – dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intilayotgan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qalay bo'lar ekan, deb o'ylay boshladim va qaror ham qabul qildim". So'ng uning "Shoshqaloq" (1961), "So'qmoqlar" (1966), "Muhabbat qo'shig'i" (1967), "Jonginam shartingni ayt" (1969) kabi hikoyalar to'plamlari birin-ketin nashr qilindi. "Sir ochildi" (1963), "Omonboy bilan Davronboy sarguzashti" (1974) qissalarini yozdi. "Sariq devni minib" (1968), "Sariq devning o'limi" (1973), "Besh bolali yigitcha" (1976), "Qasoskorning oltin boshi" (1981), "Yillar va yo'llar" (1983), "Shirin qovunlar mamlakati" (1986), "Mungli ko'zlar" (1988), "Jannati odamlar" (1996) kabi qator romanlarini kitobxonlarga taqdim etdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyoning 24 tiliga tarjima qilingan X.To'xtaboyev asarlarining katta-yu kichik tomonidan sevib o'qilishi, dunyo miqyosida shuhrat topishini ta'minlagan muhim jihatlari – qahramonlar tasviridagi hayotiylik, detallar haqqoniyligi, qiyofalardagi jonlilikdir. Yozuvchi o'zi yaxshi bilgan mavzularda qalam tebratgani holda aniq protatiplar asosidagi qahramonlarning betakror chizgilarini yaratadi.

1971 yili Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan jahon bolalar yozuvchilari kengashida Janni Rodarining yuqori bahosini olgan "Sariq devni minib" romanining minglab kitobxonlarning sevimli asariga aylanganining, undagi Hoshimjon Ro'ziyev barchaning suyuqlik qahramoni bo'lib qolganligining siri balki yuqorida ta'kidlangan jihatlardandir. Asar qahramoni Hoshimjon o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini oladigan sho'x, yaxshi o'qimaydigan o'smirlarga xos jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan. U maqsadi yo'lida chekinmaydigan, zarur bo'lsa, yolg'on so'zlashdan, turli "shum"liklar qilishdan, jurnaldagi baholarni o'zi to'g'rilab qo'yishdan tortinmaydigan bola [1, 320]. Shuningdek, qilmishlari biror do'stiga zarar yetkazadigan bo'lsa, o'z aybiga iqrar bo'ladigan adolatparvardir. U qishloq chetidagi tashlandiq uylarning biridan topib olgan sehrli qalpoqcha yordamida yaxshi o'qimasdan ham kasb egasi bo'lish mumkinligini isbotlamochi bo'ladi. Bu fikrining xatoligini Mirzacho'ldagi sovxozlarning biriga agronom bo'lgach, kompost bilan kompotning farqiga bormay sharmanda bo'lganida anglay boshlaydi. G'o'zalarga tushgan shirani kaltaklash bilan yo'qotmoqchi bo'lib, agronomlikdan quviladi, ilmsizligi tufayli shoirlik, sayyohlik, injenerlik, artistlikni ham oxir-oqibat uddalay olmaydi. Shunga qaramay Hoshimjon to'g'rilik, halollik uchun kurashuvchi sifatida odamlarga firib berib pullarini olayotgan Soraxon folbin, Yong'oq qori kirdikorlarini fosh etadi. Militsiyaga ishga kirib Odil battol to'dasiga qarshi kurash boshlaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'smirlar ichki dunyosini yaxshi bilgan iste'dodli yozuvchi ular qiyofasini yaratishda yosh xususiyatlarini e'tiborga oladi.

13-14 yoshdagi o'smirlarga xos xayolparastlik, qiziquvchanlik, do'stparvarlik, haqiqatparastlik va sarguzashtparastlik "Besh bolali yigitcha" romani qahramoni Orifjon uchun ham begona emas. Hoshimjon singari tabiatan sho'x bo'lgan Orifjon urushning og'ir yillarida besh ukasini tarbiyalash, boqishdek mashaqqatli yumushni zimmasiga oladi. Onasining traktor ostida qolib vafot etishi, otasining urushga ketishi bolalarni sarson-sargardonlikka soladi. Realistik tasvirlar vositasida adib bizni urush davri muhitiga olib kiradi. Qator bolalar obrazlari bilan Parpi buva, Turon amaki, Roziq amaki, To'lg'on xola, Xo'janazar aka kabi beg'ubor qishloq kishilari qiyofasi ko'z oldimizda jonlanadi.

X.To'xtaboyevning "Shirin qovunlar mamlakati" [2,284] nomli sarguzasht-fantastik romani bir qarashda "Sariq devni minib" romanining davomidek tuyuladi. Ammo bu ikki roman tasvir usullari, syujeti, qahramonlar talqini jihatdan tubdan farqlanadi. Roman voqealari Akramjon tilidan bayon etiladi. Bu asar syujetidagi, tilidagi jonlilikni ta'minlagan: "Yolg'onchi emasman. Yolg'on gapirgan odamni ko'rsam, meni yetti kun hiqichoq tutadi. Uyog'ini so'rasangiz, yolg'on gapirishni, birga o'nni qo'shib so'zlashni Hoshimjon chiqargan. Hoshimni taniysizmi? Ro'zivo'v akaning sartarosh o'g'lini tanimaysizmi? Yo'q, taniysiz. Hozir esingizga tushiraman. Uning to'g'risida To'xtaboyev degan yozuvchi kitob ham yozgan. O'sha kitobni maqtanchoq o'rtog'im Hoshim yana ham maqtanib yurish uchun ataylab yozdirgan. Yozuvchi amaki otpuskasini o'tkazish, shirin-shirin mevalardan yeb, soylarda mazza qilib cho'milish uchun qishlog'imizga mehmon bo'lib keluvdilar. Hoshim uning soch-soqolini tekinga olib qo'ygan, atrlarning ham eng tozasi, eng xushbo'ylaridan sepkan bo'lsa kerak. Bundan tashqari, o'sha paytda Hoshimlarning ola sigiri tuqqan edi, yozuvchiga qatiq olib o'tganini qishloqdagi bolalar bir necha bor ko'rishgan ekan. Bo'lmasa, shunga a'lochi bolalar buyoqda kelib, borib-borib maqtanchoq Hoshim haqida kitob yozarmidi? Bundan tashqari, diqqat qilgan bo'lsangiz, o'sha kitobdan yangi ivitilgan qatiqning hidi kelib turadi. Men hidni yaxshi bilaman, ming bir narsaning hidini ming metr naridan turib farqlay olaman. Hoshim rosa maqtangan bo'lsa kerak. Hatto mening ham nomimni o'sha yozuvchi bir necha bor tilga olib o'tgan". Ana shu tarzda asar voqealari boshlanadi. Akramjon lofchiligi, xayolparastligi tufayli ko'z ko'rib quloq eshitmagan sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Shirin qovunlar mamlakatiga sayohat qilib, u yerdagi illatlarni tozalashni maqsad qiladi. Ustozi Dar Daraja hamda sehrli qalpoqcha yordamida Sehrgar Iblis bilan jang qiladi [6,65].

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ota-onadan tirik yetim qolgan bolalarning ayanchli ahvoli "Mungli ko'zlar" romani mavzusi bo'lsa [4, 46], "Qasoskorning oltin boshi" romanida el-yurt ozodligi va adolat uchun kurashgan, Nomoz Pirimqul o'g'lining faoliyati, fojeali taqdiri tasvirini topgan[3,320].

X.To'xtaboyev asarlariga xos jihatlardan yana biri mehr va uni ulug'lash g'oyasining o'q tomir bo'lib o'tganligidir. Millatimizga xos bo'lgan bolajonlilik xususiyati Orifjon qiyofasida, uning mashaqqatli taqdiri tasvirida barq urib turadi. O'zbekona xarakterlar, o'z davrining sodda, beg'ubor qishloq odamlari qiyofasi "Besh bolali yigitcha" romanidagi To'lg'on xola, Parpi buva, To'xta xola tasvirida ko'rinadi. To'lg'on xola frontga ketgan ikki o'g'li va ukasiga atab uch xaltada quruq meva olib chiqadi. Parpi buva esa uch o'g'liga atalgan narsalarni berarkan, katta o'g'li To'ravoyga xotinining boshqa odam bilan turmush qurib ketganligini aytmaslikni tayinlaydi. O'rtancha o'g'li Anorboyga atalgan patirni topshirarkan, qotib qolmasidan tezroq olib borishini tayinlaydi. Parpi buva" Girmonni bitta ko'zi oldinda, bitta ko'zi orqada bo'lar ekan" desa, Roziq tog'a Polvon tog'aga"urushayotganda og'zingdan "kalimai shahodat" tushmasin, shunda senga o'q kor qilmaydi", deya nasihat qiladi[5,68].

XULOSA

Xullas, X.To'xtaboyev asarlaridagi qahramonlari ezgulik va adolatni qaror toptirish uchun tinmay kurashadilar, jonlarini fido etadilar. Beg'ubor orzulari, yuksak maqsadlari bilan ko'plab avlod kitobxonlarini o'zlariga do'stlashtirib oladilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тўхтабоев Х. Сариқ девни миниб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1968.
2. Тўхтабоев Х. Ширин қовунлар мамлақати. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986.
3. Тўхтабоев Х. Қасоскорнинг олтин боши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
4. Тўхтабоев Х. Мунгли кўзлар. – Тошкент: Камалак, 1991.
5. Тўхтабоев Х. Беш болали йигитча. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976
6. Сабирдинов А. Ижоднинг сەҳрли олами. – Фарғона, 2019.